

KUSHON PODSHOLIGI BUDDIZMNING TUTGAN O'RNI.

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

Rustamova Sevinch Faxriddin qizi

SHDPI Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'lkamiz hududida Kushonlar davridan boshlab tarqala boshlagan buddizm, uning madaniyat va siyosiy hayotga ta'siri, mintaqada rivojlanishi va boshqa hududlarga yoyilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Buddizm, Kanishka, Peshovar, tanga, Qadimgi Termiz, Qoratepa, voiz, Fayoztepa, vixara.

Buddizmning Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrda bu yerlardagi qabilalarning avlodlari tomonidan tugatilgan grek-Baqtriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan avriga to'g'ri keladi. Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I - II asrida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podsholigi davrida buddizm Hindistonda Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqda tarqalgan.⁷ Buddizm turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddizm hayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga kirib bordi. Kushonlar davri buddizmning madaniy hayotidagi o'ziga xos tomonlardan yana biri bu ko'hna Hind madaniyatining o'lkamizga yanada jonliroq kirib kelishi va o'z o'rnida mintaqamizga xos ko'rinishlarning Hindiston zaminida o'rnashib borishi bilan belgilanadi. Bunga oid misollarni ko'plab keltirish mumkin. Birgina shaxmatga doir tarixiy guvohlikni olaylik. Aslida Hindistonda paydo bo'lgan va chaturanga nomi bilan mashhur bu o'yin milod boshlaridayoq mintaqamiz ahli orasida tarqala boshlagan. Yo bo'lmasa, qadimgi ajdodlarimizning Hind zaminiga ko'chib borib, u yer madaniyati, dinini qabul qilibgina qolmay, balki davlat boshqaruvida faol ishtirok etganliklarini olaylik.

Kushon podsholigi asoschilari bo'lgan yuechji (Xitoy manbalarida) qabilasi Sirdaryo ortidan Baqtriyaga yerlariga kelib, sak qabilalarini yenggan hamda Yunon-Baqtriya yerlarini egalladilar. Natijada bir asr mobaynida Yunon-Baqtriya yerlarida yashagan qabilalar 5 qabilaga bo'linib, istiqomat qilishgan. Milodiy I asrda esa kushon qabilasidan bo'lgan Kudzula Kadfiz "Kushon" podsholigiga asos soldi. Kushon podsholigi davrida

⁷.Abduxoliqov, S.Yo'ldosheva "Dinshunoslik", T-2004, 39-b.

bir hududda turli dinlar amalda bo'lgan. Saltanatda dinlar o'rtasida o'zaro tenglik siyosati olib borib, shahar aholisi podsholikning bag'rikenglik an'alariga muvofiq, zardushtiylik, buddaviylik, moniylik va boshqa dinlarga sig'inganlar.⁸ Ularning e'tiqodlari xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mintaqaning aksar qismida zardushtiylik o'z mavqeini, asosan, saqlab qolgan. Ammo kushonlarning Hindistonning kattagina qismini bo'ysundirishi va, ayniqsa, Kanishka hukmronligi yillari saltanat markazining So'g'diyonadan Peshovarga ko'chirilishi bilan buddaparastlik dini o'lkamiz ahli orasida ham tarqala boshladi. Bundan ma'lum ma'noda kushon hukmdorlari ham manfaatdor edilar. Chunki butun saltanatda yagona din va e'tiqodning ustuvor bo'lishi siyosiy jihatdan ham yaxlitlikni ta'minlashda qo'l kelishi muqarrar edi.⁹

Keyingi O'n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda taxmin qilish mumkinki, islomgacha bo'lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g'oyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalargagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag'al dehqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqlari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar qurganlar. Kushonlar saltanati tarixidagi oltin davr, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy- madaniy taraqqiyotda eng yuqori darajaga erishilgan davr "Kanishka davri" hisoblanadi. Kanishka saltanatda hukmronlik qilgan yunon va hind tillari o'rniga Kushon-Baqtriya tilini joriy qiladi. Tangalarga Baqtriya yozuvi zarb qilinadi. U muomalaga chiqargan tangalarga hindlarning xudosi Shiva tasvirini tushirtirib, unga o'z nomidan "Shoxlarning shohi - ulug' xaloskor" yozuvini zabt ettiradi. Kanishka Buddaviylikni davlat dini deb e'lon qiladi. Davlatning diniy mafkurasi sifatida budda dinidan foydalangan bo'lsa-da, boshqa diniy jamoalarning faoliyati uchun ham erkinliklar beradi.¹⁰

Hindistonda Kushon imperatorlari tanga zarb qilishda muntazam ravishda sulola nomidan KOPANO („Koshano“)dan foydalanar edilar.¹¹ Ko'plab diniy e'tiqodlarga sig'ingan xalqlarni birlashtirgan Kushon davlatining hukmdorlari Kanishka va Xuvishka tangalar zarb etganlarida ko'p sonli diniy e'tiqodlarga nisbatan o'zlarining diniy bag'rikengliklarini ifoda etishgan. Ularning tangalarida ko'plab zardushtiy va mahalliy xudolar (Atesh, Oxsho, Mixr, Max, Nana, Ardoxsho)ning tasvirlari hamda ayrim hind xudolarining siymolari tushirilgan. Qayd etish lozimki, Kushon davlati hududlarining Hind vohasigacha kengayishi natijasida davlat hududlariga Budda dini kirib keladi. Kushon podsholari Vima Kadfiz va Vasudeva I tangalarida faqat buddaviylarning jangari xudosi Shiva tasvirlari uchraydi. Shunga qaramasdan, buddaviylik Shimoliy Baqtriyada

⁸ Bozorova S. "Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik".

⁹ Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi", T-2000, 71-b.

¹⁰ Amonov A.E. Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotida buddaviylik dinining qoldirgan izlari".

¹¹ Mahmudova Z.A. O'rozov Z.J. "Kushon podsholigi".

nafaqat oddiy aholi va zodagonlar, balki Kushon hukmdorlari orasida ham ko'plab tarafdorlarini topdiki, bu hududlardagi ko'p sonli buddaviylik ibodatxonalari va saroylari yuqoridagi fikrning dalili bo'la oladi. Boshqa O'rta Osiyo viloyatlarida bo'lgani kabi antik davr Baqtriyada aholi orasida ham Buyuk ilohaga sig'inish keng ommalashgan. Bu ilohaning juda ko'p sonli terrakota haykalchalarining Shimoliy Baqtriyadagi deyarli barcha yodgorliklardan topilishi shundan dalolat beradi. Buyuk ilohaning qanday nomlanganligini aniq aytish qiyin. Ayrim olimlarning uni "Avesto"dagi Anaxita bilan qiyoslashlari ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topmagan.¹² Ayniqsa, Kushon hukmdorlarining Xolchayondagi saroyida va eski Termiz va Dalvarzindagi budda ibodatxonalaridan davlatning diniy e'tiqodi va marosimlari haqida ma'lumot olsak bo'ladi.

Kushonlar davridagi Shimoliy Baqtriyada joylashgan Qadimgi Termiz eng katta ibodatxona hisoblangan. Bu yerda ibodatlar qilinishi bilan birga, bud voizlari ham tahsil olganlar. Ayni ular hind kohinlari bilan raqobatlasha olganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi. Yozma manbalarga ko'ra, bu ibodatxonada kohin Dxarmamitra va targ'ibotchi Gxoshakalar yetishib chiqqan bo'lib, ular hatto Kanishka tomonidan Peshovarda o'tkazilgan budparastlarning yig'ilishida qatnashganlar. Termiz ibodatxonalari ro'yxatiga kiruvchi Qoratepadan topilgan inshootlardan budda ibodatxonasi bo'lganligi haqida ham taxminlar mavjud. Ammo ibodatxona borligi haqidagi ashyolar yetarli emas: tadqiqotlar natijasida Budda haykali va qisman saqlangan supa topilgan. Bu yerdagi qiziq jihat shundaki, qurilishda Afg'oniston, Pokiston va Hindistondagidek yerosti qurilishidan foydalanilgan. 1968-yilda topilgan ibodatxona esa Qoratepada buddizmning tarqalganligiga yaqqol misol bo'la oladi. U vixara(kompleks) lardan iborat bo'lgan Fayoztepa yodgorligidir. Qoratepa va Fayoztepa madaniy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ikki ibodatxonadan ham haykaltaroshlik, san'at va kulolchilikka oid deyarli bir xil uslubdagi ashyolar topilgan. Xususan, Buddaning alohida belgisu bo'lgan boshinin go'rtasidagi do'nglik, peshonasidagi kichik dog' va qulog'ining solinchog'ining uzunchoqligi ikki yodgorliklardan ham topilgan haykal va devoriy tasvirlarda ko'rsatib berilgan.¹³

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, buddaviylik Markaziy Osiyo hududiga tarqala boshlagan davrdan boshlab, madaniy va siyosiy hayotda tub yangilanishlar ro'y bera boshlagan. Mintaqamiz qadimiy dinlari va madaniyati haqida taqiqotlar olib borish, ularning ta'sirini o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

¹²A.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi", T-2021, 278-279-b.

¹³ Sh.Pidayev "Sirli Kushonlar saltanati", T-1990, 18-23-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Abduxoliqov, S.Yo'ldosheva "Dinshunoslik", T-2004, 39-b.
2. Bozorova S. "Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik", <https://cyberleninka.ru/article/n/kushon-podsholigi-davrida-diniy-bag-rikenglik>
3. Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi", T-2000, 71-b.
4. Amonov A.E. "Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotida buddaviylik dinining qoldirgan izlari". <http://research.samdu.uz/>
5. Mahmudova Z.A. O'rozov Z.J. "Kushon podsholigi". <https://phoenixpublication.uz/>
6. A.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi", T-2021, 278-279-b.
7. Sh.Pidayev "Sirli Kushonlar saltanati", T-1990, 18-23-b.
8. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
9. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
10. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
11. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
12. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
13. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.